

**“EZGULIK” VA “YOVUZLIK” KONSEPTLARINING BADIY MATNDA
VOQEALANISHI HOLID XUSAYNIYNING “SHAMOL ORTIDAN YUGURIB”
HAMDA “MING QUYOSH SHU’LASI” ASARLARI MISOLIDA**

O‘rinboyeva Mohinur Qahramon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Email: orinboeyvamohinur968@gmail.com

Ochildiyev Eldor Obidjon o‘g‘li

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Email: eldorochildiyev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Xolid Husayniyning “Shamol ortidan yugurib” va “Ming quyosh shu’lasi” asarlarida ezgulik va yovuzlik konseptlarining talqinini o‘rganadi. Tadqiqot jarayonida asarlardagi qahramonlar xarakteri, ularning ruhiy kechinmalari hamda ijtimoiy va urush muhiti inson taqdiriga ta’siri orqali ezgulik va yovuzlikning namoyon bo‘lish usullari yoritiladi. Shuningdek, insoniylik, vijdon, sadoqat, xiyonat, zulm va kechirim kabi tushunchalarning badiiy ifodasi qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Muallif obrazlari orqali inson qalbidagi ichki kurash va ma’naviy tanlov masalalari ochib beriladi. Tadqiqotda Xolid Husayniy asarlarida ezgulikning insoniy qadriyat sifatida ulug‘lanishi, yovuzlikning esa urush, zo‘ravonlik va ijtimoiy tengsizlik oqibatida yuzaga kelishi badiiy vositalar orqali asoslanganligi qayd etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ezgulik, yovuzlik, badiiy matn, konsept, lingvopoetika, Xolid Husayniy, Shamol ortidan yugurib, Ming quyosh shu’lasi, obraz, insoniylik, sadoqat, xiyonat, urush, ma’naviy qadriyatlar, psixologik tasvir.*

Kirish. *Badiiy adabiyot inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari, ma’naviy olami hamda jamiyatdagi axloqiy qarashlarni aks ettiruvchi muhim estetik hodisa hisoblanadi. Har bir davr adabiyotida inson tabiatiga xos bo‘lgan ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash markaziy mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Ezgulik insoniylik, mehr-oqibat, sadoqat, kechirimlilik va adolat kabi fazilatlar orqali ifodalansa, yovuzlik zulm, xiyonat, zo‘ravonlik, adolatsizlik va jaholat kabi salbiy holatlar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur tushunchalar insoniyat tafakkurida qadimdan mavjud bo‘lib, falsafa, din, psixologiya va adabiyot kabi turli sohalarda keng talqin etilgan.*

Badiiy matnda ezgulik va yovuzlik konseptlari obrazlar tizimi, syujet rivoji, psixologik tasvirlar hamda ramziy vositalar orqali yoritiladi. Shu sababli ushbu konseptlarni o‘rganish adabiyotshunoslik, lingvopoetika va lingvokulturologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy jahon adabiyotida urush, ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik va insoniy qadriyatlarning yemirilishi bilan bog‘liq muammolar keng tasvirlanayotgani ezgulik va yovuzlik masalasining badiiy talqiniga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirmoqda. Inson qalbidagi ichki kurash, vijdon azobi, ma‘naviy tanlov va ruhiy sinovlar badiiy asarlarning g‘oyaviy asosini tashkil etmoqda.

Xolid Husayniy ijodi zamonaviy jahon adabiyotida ana shunday dolzarb mavzularni chuqur yoritgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi asarlarida afg‘on xalqining murakkab taqdiri, urush fojealari, ijtimoiy muammolar va insoniy munosabatlar ta‘sirchan badiiy vositalar orqali ochib beriladi. Ayniqsa, Shamol ortidan yugurib hamda Ming quyosh shulasi asarlarida ezgulik va yovuzlik konseptlari inson taqdiri bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlangan. Mazkur asarlarda qahramonlarning hayotiy sinovlari, ruhiy iztiroblari, ma‘naviy tanlovlari hamda jamiyatdagi ijtimoiy muhit ta‘siri chuqur psixologik tahlil asosida yoritiladi.

“Shamol ortidan yugurib” romanida inson qalbidagi vijdon, sadoqat, xiyonat va kechirim kabi tushunchalar Amir hamda Hasan obrazlari orqali ochib beriladi. Asarda bolalikdagi xatolar, ruhiy azob va ma‘naviy poklanish jarayoni tasvirlanadi. “Ming quyosh shu‘lasi” romanida esa ayollar taqdiri misolida sabr-toqat, mehr-muhabbat, fidoyilik hamda zo‘ravonlik va adolatsizlik kabi masalalar yoritiladi. Maryam va Laylo obrazlari orqali insoniylik va ezgulik ulug‘lansa, Rashid obrazi orqali yovuzlikning shafqatsiz ko‘rinishlari namoyon etiladi.

Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, unda ezgulik va yovuzlik konseptlarining badiiy matnda voqealanishi zamonaviy adabiyot namunasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida konseptlarning qahramonlar xarakterida, syujet rivojida hamda lingvopoetik vositalarda ifodalanish xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, yozuvchining badiiy mahorati, psixologik tasvir usullari va ramziy obrazlardan foydalanish xususiyatlari ham tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi Xolid Husayniyning “Shamol ortidan yugurib” va “Ming quyosh shu‘lasi” asarlarida ezgulik va yovuzlik konseptlarining badiiy talqinini o‘rganish hamda ularning asar g‘oyaviy-badiiy mazmunidagi o‘rnini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va konseptual yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot natijalari badiiy matnda axloqiy konseptlarning ifodalanish xususiyatlarini o‘rganishda, zamonaviy adabiyotdagi konseptual qarashlarni tahlil etishda hamda lingvopoetik tadqiqotlarni boyitishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Xolid Husayniy asarlarida ezgulik va yovuzlik g‘oyalari inson taqdiri, jamiyatdagi ijtimoiy muhit hamda tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlangan. Yozuvchi o‘z qahramonlari orqali inson qalbidagi ichki kurashlarni, ma‘naviy tanlovlarni va hayot sinovlari qarshisidagi ruhiy kechinmalarni chuqur tasvirlaydi. Ayniqsa, Shamol ortidan yugurib hamda Ming quyosh shu‘lasi asarlarida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi ziddiyat markaziy g‘oyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

“Shamol ortidan yugurib” romanida Hasan obrazi ezgulik timsoli sifatida gavdalantirilgan. U sadoqatli, mehribon va fidoyi inson sifatida tasvirlanadi. Hasanining Amirga bo‘lgan cheksiz sadoqati, do‘stlikka xiyonat qilmasligi hamda barcha qiyinchiliklarga sabr bilan bardosh berishi ezgulikning yorqin ifodasidir. Amir obrazi esa murakkab xarakterga ega bo‘lib, unda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi ichki ziddiyat namoyon bo‘ladi. Amir bolalikdagi qo‘rqoqligi va xiyonati tufayli ruhiy azob chekadi, keyinchalik esa o‘z aybini yuvish orqali ma‘naviy poklanishga intiladi. Shu orqali yozuvchi inson xato qilgan bo‘lsa ham, vijdon va tavba orqali ezgulikka qaytishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Asarda Asif obrazi yovuzlik timsoli sifatida muhim o‘rin tutadi. U o‘zining shafqatsizligi, zo‘ravonligi va g‘ayriinsoniy harakatlari orqali yovuzlikning eng keskin ko‘rinishi sifatida tasvirlanadi. Asif nafaqat alohida shaxs, balki urush va jaholat natijasida shakllangan shafqatsiz muhitning ramziy timsoli ham hisoblanadi. Muallif shu orqali jamiyatdagi adolatsizlik va zo‘ravonlikning inson ruhiyatiga qanday salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ochib beradi.

Ming quyosh shu‘lasi romanida esa ayollar taqdiri misolida ezgulik va yovuzlik masalasi yanada chuqurroq yoritiladi. Maryam va Laylo obrazlari sabr-toqat, mehribonlik, muhabbat va fidoyilik kabi ezgu fazilatlarining yorqin namunasi sifatida gavdalanadi. Ular hayotning og‘ir sinovlariga qaramay, insoniylik fazilatlarini saqlab qolishga harakat qiladilar. Mariamning o‘z jonini fido qilib Laylo va uning bolalarini himoya qilishi esa ayniqsa ezgulikning eng yuksak namoyonidir.

Xulosa. Ezgulik va yovuzlik konsepsiyalari Shamol ortidan yugurib va Ming quyosh shu‘lasi asarlarida chuqur badiiy hamda psixologik tasvirlar orqali ifodalangan. Muallif inson hayotidagi murakkab ma‘naviy jarayonlarni qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va hayotiy tanlovlari vositasida tasvirlaydi. Asarlarda ezgulik saxovat, samimiyat, mehr-shafqat, sabr, kechirimlilik va fidoyilik kabi fazilatlar orqali namoyon bo‘lsa, yovuzlik zulm, xiyonat, qo‘rqoqlik, zo‘ravonlik va adolatsizlik kabi salbiy holatlar orqali ifodalanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, asarlardagi qahramonlar ezgulik va yovuzlik konsepsiyalarining asosiy tashuvchilari bo‘lib, ularning xarakteri va ma‘naviy dunyosi ushbu tushunchalarni ochib berishga xizmat qiladi. Maryam va Laylo obrazlari insoniy poklik, mehr va fidoyilik timsoli sifatida gavdalantirilgan bo‘lsa, Asif va Rashid obrazlari shafqatsizlik, zo‘ravonlik

hamda jaholatning ramziy ifodasi sifatida tasvirlangan. Amir obrazi esa murakkab inson qalbining ichki kurashi, vijdon azobi va ma’naviy poklanish jarayonini ochib beruvchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, yozuvchi asarlarida urush, qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik va jaholat muhitining inson ruhiyatiga salbiy ta’siri chuqur yoritilgan. Muallif yovuzlikni faqat alohida inson xarakteriga bog‘lab qo‘ymaydi, balki uni jamiyatdagi ijtimoiy va tarixiy muammolar bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladi. Shu jihatdan asarlar nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga, balki katta tarbiyaviy va ma’naviy qiymatga ham ega. Bundan tashqari, asarlarda qo‘llangan ramziy obrazlar, psixologik tasvirlar, dialoglar va lingvopoetik vositalar ezgulik hamda yovuzlik konseptlarining ta’sirchanligini yanada kuchaytiradi. Uchirilgan varrak, quyosh, nur va zulmat kabi ramziy detallar asarlarning g‘oyaviy mazmunini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolid Husayniy. *Shamol ortidan yugurib*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
2. Xolid Husayniy. *Ming quyosh shu’lasi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Quronov D. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Yo‘ldoshev B. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. – Toshkent: Fan, 2008.
5. [Britannica – Xolid Husayniy haqida](#)
6. [Wikipedia – Shamol ortidan yugurib](#)
7. [Wikipedia – Ming quyosh shulasi](#)